O‘QITUVCHILARDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

I.S.Soliev
Farg’ona davlat universiteti falsafa fanlari p.h.d

G.N.Sirojiddinova
2-kurs magistri

Annotatsiya. Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakl va usullarini takomillashtirish alohida rol o‘ynaydi. Bu o‘qituvchining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, kamida o‘z kasbini va bolani qanchalik yaxshi ko‘rishiga bog‘liq.

Kalit so’zlar: bank, balans, birja, valyuta kursi, import, soliq, kapital, kredit, mehnat birjasi, pul, raqobatchilik, savdo, tovar birjasi, hissadorlar jamiyati, pensiyonerlar.

Аннотатция. Совершенствование содержания, форм и методов учебного процесса играет особую роль в становлении экономического образования. Это зависит от уровня знаний учителя, педагогического мастерства, как минимум его профессии и от того, насколько он любит ребенка.

Ключевые слова: банк, баланс, фондовая биржа, валютный курс, импорт, налог, капитал, кредит, рынок труда, деньги, конкуренция, торговля, товарный рынок, акционерное общество, пенсионеры.

Annotation. Improving the content, forms and methods of the educational process plays a special role in the formation of economic education. It depends on the teacher's level of knowledge, pedagogical skills, at least his profession and how much he loves the child.

Key words: bank, balance sheet, stock exchange, exchange rate, import, tax, capital, credit, labor market, money, competition, trade, commodity market, joint stock company, pensioners

O‘qituvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda mehnat faoliyati, ta’lim jarayoni, o‘zaro munosabatlar, ularning jamoasi muhim vosita bo‘lib qolmog‘i kerak. Chunki jamoa va o‘zaro munosabatlar faoliyatida o‘quvchilarda odamlarga nisbatan ishonish, halollik, poklik, mehribonlik, hislari shakllanadi. Shu sababli ota-ona, o‘qituvchilar bola shaxsini jamoada o‘zaro munosabatlarda shakllantirish uchun ular bilan doimo munosabatda bo‘lishi tajamkorlik va ehtiyotkorlik, ijtimoiy foydali mehnatda hamisha umumiy jarayonini tashkil etishni uyushtirishlari lozim. Iqtisodiy tarbiya faoliyatda jarayonni belgilagan maqsadga erishish, o‘zini boshqarishga xohish bo‘yicha ishlash emas, balki kerakli ishlarni bajarishga o‘rgatish, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, hamma joyda oldi-sotdi ishlarini bajarish, kishilar haqiga hiyonat qilmaslik, o‘z-o‘zini tarbiyalash va bunda kuchli-kuchsiz tomonlarini aniqlash, iqtisodiy bilimlarni egallashi va dovyuraklik va talabchanlik, mustaqillik, o‘zini tuta bilish kabilar tashkil etadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining

iqtisodiy tarbiyasini shakllantirish dasturi, kundalik ish rejasi tutishi o‘quvchilardagi o‘zgarishlar, odob qoidalarining bajarilishini yozib boradilar.

Shu bilan birga iqtisodiy bilimlar insonning haqiqatga bo‘lgan munosabati shakllanishiga va rivojlanishiga, turmushga, ongiga, hayotiga ta’sir etadi, ya’ni iqtisodiy bilimlar inson faoliyati, madaniyatining asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy bilimlar inson faoliyatida iqtisodiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Demak, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Bu odoblar o‘quvchilarda maktabni turli ijtimoiy fanlar asoslarini va ijtimoiy hayot munosabatlarida paydo bo‘ladi.

Natijada iqtisodiy ong va bilimlar rivojlanib boradi. Iqtisodiy tarbiya va bilim orqali bola iqtisodiy madaniyatga erishadi. Hayotda tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko‘p uchratish mumkin. Bola qanchalar iqtisodiy munosabatlarda qiynalsa , u shunchalik iqtisodiy bilimlarni ko‘proq egallaydi. Bu holat o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga ham bog‘liq.

Shunday ekan, har bir dars jarayonida o‘quvchi tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakl va usullarini takomillashtirish alohida rol o‘ynaydi. Bu o‘qituvchining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, kamida o‘z kasbini va bolani qanchalik yaxshi ko‘rishiga bog‘liq. O‘quvchilarning dars jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy bilim boylik manbai bo‘lib, kishi aqlini mustahkamlaydi, izzatini oshiradi, har bir kishini kamolga yetkazadi, ularni boqiy qiladi. Iqtisodiy tarbiya tuzilishida iqtisodiy his-tuyg‘ular o‘quvchilar hayotida asosiy o‘rinni egallaydi. Bu tuyg‘ular yurt obodligi, kishilarning farovon yashashi uchun kurashish fazilatlarini shakllantiradi.

Dunyoda yaratilayotgan noz-ne’matlar va mahsulotlarning hammasi faqat insonning yaxshi yashashi va farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, unda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish orqali iqtisodiy tarbiya va ahloqiy me’yorlarni yaxshilashdan iborat. Yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar faqatgina ijobiy va salbiy me’yorlar sifatida emas, balki inson his qilishi orqali ham o‘zgartiriladi.

Iqtisodiy tarbiya kishining iqtisodiy faoliyatida voqea va hodisalarida, iqtisodiy jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tarbiya bola xohish-irodasining iqtisodiy ong, iqtisodiy bilish asosida ifodalanadi. Iqtisodiy tarbiya kishilarning o‘z-o‘ziga, jamiyatga, hayotga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Ishonch, qayg‘urish, ko‘ra olmaslik, g‘urur va manmanlik, o‘ziga bino qo‘yish, salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan iqtisodiy his-tuyg‘ular kundalik turmushda ko‘plab uchraydi. Demak, iqtisodiy his-tuyg‘ular o‘zining kelib chiqishi va ahamiyati bilan ijtimoiy xarakteriga ega. Iqtisodiy tarbiya his-tuyg‘ulari o‘z mazmuniga ko‘ra savdo sohasida ishonch, halollik va poklik, iqtisodiy ong bilan chambarchas bog‘liq.

Iqtisodiy tarbiya bilish, his qilish, tushunish, tasavvur qilish kabi inson faoliyatidagi turli-tuman jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs faolligini oshiradi. Iqtisodiy odob his-tuyg‘ularini tarbiyalashda o‘qituvchilardan maxsus ish olib borishni, o‘quvchi shaxsiga xos ta’sir etishni bolalarning turmush tarzi, hayot odobini tashkil etishni talab qiladi. Ta’lim jarayoni, mehnat faoliyati, o‘quvchilar jamosi iqtisodiy his-tuyg‘ulari shakllantirishning asosiy vositalari hisoblanadi. O‘quvchilarning iqtisodiy his-tuyg‘ularini tarbiyalashda sog‘lom muhit, zavqli vaziyatni vujudga keltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ana shunday sharoitda o‘quvchilarda odamiylik, hayrixohlik va poklik, tejamkorlik kabi fazilatlar namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar sinf rahbarlari bilan muloqotga kirishar ekanlar o‘z ongida kishilarning iqtisodiyot tarbiyasidagi muayyan namunalarni tasavvur qiladilar. Ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qilib, o‘z xatti-harakatlari va munosabatlari, iqtisodiy meyoriy va qoidalarini shakllantiradi.

O‘quvchilar muloqot jarayonida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning asosiy omillari bo‘lgan ma’naviy qarashlar, iqtisodiy his-tuyg‘ular, meyorlarni qabul qiladilar, o‘zlashtiradilar. Bu esa o‘quvchining iqtisodiy his-tuyg‘ularini ijobiy shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda sinf rahbari doimo ularni ma’naviy nazorat qilishi va iqtisodiy tarbiya, shakl, vositalaridan foydalanishi, ma’qullash, qoralash uslublarini qo‘llashi lozim. Bunday muloqotlar o‘quvchilarning iqtisodiy ongini rivojlantiradi. Ularning xatti-harakatlarini belgilaydi. Iqtisodiy tarbiyaga ta’sir etadi, fe’l-atvorini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya oila, maktab va keng jamoatchilik ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda bolaning xulq-atvori muhim o‘rinni egallaydi. Xulq-atvor ahloq madaniyatining muhim qismi bo‘lib, u tartib-intizomda, hayot meyorlarini bajarishda, jamiyatga, mehnatga, odamlar bilan bajariladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Kishilarning qay darajada iqtisodiy jihatdan madaniyatli ekanligini uning xulq-atvoridan bilish mumkin. Bu uning muomalasida, xatti-harakatlarida, didi, faxm-farosatida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning xulq-atvori iqtisodiyot tarbiyani shakllantirish o‘quvchidan iqtisodiy odob ishlarini olib borishni talab etadi. Albatta, bunda o‘quvchi bola xulq-atvor odobini tarbiyalashda uning axloqiy ongiga, sinf jamoasiga asoslanishi kerak. Shu bilan birga o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta bilish ham xulq-atvor odobini tarbiyalashda samarali natijalar beradi. Albatta, bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy xulq-atvorni tarbiyalash, ularni nazorat qilish, xatti-harakatlariga alohida ahamiyat berish bilan birgalikda, doimiy talabchan bo‘lish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy xulq-atvor o‘quvchilarning iqtisodiy faoliyati davomida mustahkamlashadi.

Iqtisodiy faoliyatda o‘quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo‘lgan xulq-atvorlarini ko‘rish mumkin.

Shuning uchun ham o‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchidagi iqtisodiy bilim, tushuncha va odobni chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko‘maklashishi lozim. Iqtisodiy xatti-harakat o‘quvchining

iqtisodiy jihatdan tarbiyalanganligi, iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni o‘z hayotida qo‘llayotganligini ko‘rsatadi. Bolaning iqtisodiy odobini shakllantirish uning iqtisodiy xulqini tarbiyalash va iqtisodiy xulqidagi salbiy tomonlarini bartaraf etish haqida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida atroflicha yoritilgan. Uning fikricha, boladagi ezgu va oliyjanob yoki razil badbin xulq o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.

Ularning shakllanishi uchun ma’lum sharoit va tarbiya kerak. Bola tarbiyasida Abdulla Avloniy to‘xtalib "Agar yaxshi tarbiya topib buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar. Agar tartibsiz, axloqi buzilib o‘ssa Allohdan qo‘rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog‘iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon johil bir rasvoyi olam bo‘lib qolur "-deb yozadi. Dono xalqimizning "Xulq- aqilli kishi uchun ulug‘lik va fazilat", "Xulqi yo‘qning aqli yo‘q" naqllari bejiz aytilmagan.

O‘zbekiston mustaqilligi tufayli ota-bobolarimizning axloq-odobi haqidagi hikoyatlar, naql va rivoyatlari farzandlarimizning iqtisodiy tarbiyasini shakllantirishda yangicha mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, halollik, poklik, to‘g‘ri so‘z, ishonchlilik va insoniylik kabi iqtisodiy odob fazilatlari o‘quvchilarni kamolot sari yetaklaydi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga atrofdagi kishilarning shaxsiy na’munasi, buyuk siymolar odobi, mehnat va urush faxriylari, kino va sahna asarlarining qahramonlari hayoti doimo ibrat qilib ko‘rsatiladi. Iqtisodiy odob, ko‘nikma malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ota -ona va o‘qituvchilar hulqi, odobi o‘quvchi uchun doimo na’muna bo‘lmog‘i kerak.

Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari katta hayotga qadam qo‘yish oldidan e’tiborli, g‘amxo‘r, adolatli odatlarni astoydil sevadilar, hamma ishda kishilar haqiga hiyonat qilmaslik, tejamkor, vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanish kabi xislatlar mujassamlanib, o‘quvchining iqtisodiy tarbiyasini shakllanishiga olib keladi. Demak, o‘z tilini, odobi va iqtisodiy tarbiyasi bilan qurollantirgan, qo‘lini esa to‘g‘rilikka odatlantirgan kishigina kamolotga yetishi mumkin. Kamolotga yetgan inson yaxshilik va yomonlik farqini biladi, foyda bilan zarar o‘rtasidagi tafovutni anglaydi, o‘z iqtisodiy faoliyatida yomon xususiyatlardan holi bo‘ladi, chiroyli odatlarni egallaydi.

Iqtisodiy tarbiya funksiyalari iqtisodiy tarbiya negizini tashkil etib, uni shakllantirish ma’naviy boyliklar, iqtisodiy bilimlar, ijobiy milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi chuqur fikr-mulohazalar asosida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tarbiya funksiyalari insonning kundalik turmushida, hayotga bo‘lgan munosabatlarida, iqtisodiy faoliyatlarida rivojlanadi va kamol topadi. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mustaqilligi tufayli qayta tiklangan boy ma’naviy merosimiz, undagi ming yillik tariximiz, ijtimoiy adolat, mustaqillik yo‘lidagi kurashlar iqtisodiy tarbiya poydevori hisoblanadi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda yakdillik, iymon va insof, to‘g‘ri so‘z va ish birligi, kishilarga hiyonat qilmaslik, insonparvarlik, yangi qurilayotgan

jamiyatning boshlaridan biriga aylangan. Shunday ekan jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini, har bir fuqaro his etishi va unga amal qilishi lozim. O‘zbekistonda yashovchi har bir kishi, kelajagi buyuk bo‘lgan mustaqil davlatimizni umumbashariyatga tanishtirishda va xalqimiz o‘rtasidagi inoqlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmog‘i kerak. Ayniqsa, yoshlarni, o‘sib kelayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yangilanayotgan demokratik, insonparvar jamiyatga munosib qilib tarbiyalash o‘z navbatida maktab, kasb-hunar kolleji faoliyatini davr talablari asosida tashkil etishni talab qiladi. Shuning uchun ham hozirda yangilanayotgan jamiyat istiqboli uchun kurashish, chuqur mas'uliyatni his qiladigan yoshlarni tarbiyalash maktab o‘qituvchilarining asosiy vazifasi bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan islohotlar, bozor munosabatlari mustaqil davlatimizning yangi sharoitlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ham jamiyatimiz manfaati yo‘lidagi yuksak talablar ta'siri ostida uning hayot tajribasi, iqtisodiy tarbiya shakllanib boradi. Shu sababli o‘quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanmoqda. Chunki har bir bolaning jamiyat hayotida ishtirok etishi iqtisodiy tarbiya ishining muhim tamoyili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi jamiyat manfaati uchun qanday ulush qo‘shayotganligini, o‘zgalarga nima foyda keltirayotganligini his etish iqtisodiy tarbiyaning yuqori cho‘qqisi. Chunki bu o‘quvchining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning ongda yetilganligining dalilidir. Shuni aytish kerakki, o‘quvchining jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida, yurt obodligi uchun kurashda, poklik, milliy hamkorlik tuyg‘ulari kabi bir butun sifatlar shakllanadi.

Iqtisodiy tarbiya insonning jamiyatga bo‘lgan hurmati munosabati negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o‘quvchida jamiyatga bo‘lgan hurmatni yuksaltirish, iqtisodiy tarbiyalangan bo‘lishiga, iqtisodiy ongining o‘zini-o‘zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo‘lgan e'tiqodini rivojlantirishga olib keladi. Demak, xalqning kuch-qudrati uning sonida emas, balki jamiyatga bo‘lgan hurmatidir. Maktab o‘quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda iqtisodiy tarbiyaning halollik, tejamkorlik, to‘g‘riso‘zlik, vaqtdan unumli foydalanish, ishbilarmonlik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o‘z o‘quvchilariga tushuntirish lozim.

O‘zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o‘qishdan, izlanishdan, mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchililardan qo‘rqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat ruhida tarbiyalashni talab qiladi.

Chunki bugungi O‘zbekiston zaminida yashayotgan har bir yigit-qiz o‘z vijdoni oldida javob berishi, shu yurtning ravnaqi va obodligi uchun kurashish asosiy burchi ekanligini anglamog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ilhom, S. (2022). EARLY STUDENTS IN MATHEMATICS FORMATION OF FUNDAMENTALS OF ECONOMIC KNOWLEDGE.

2. Soliev, I. S. (2020). FACTORS OF FORMATION OF INFORMATION COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. In *Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 218-220).
3. Sobirjonovich, S. I. (2022). Child Thinking and Problem Solving. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *4*, 111-115.
4. Sobirjonovich, S. I. (2021). Teaching Preschool Children in a Second Language. *International Journal of Culture and Modernity*, *11*, 406-411.
5. Sobirjonovich, S. I. (2021). Professionalism as a Factor in the Development of the Pedagogical Activity of the Future Teacher. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, *1*(7), 76-81.
6. Sobirjonovich, S. I. (2021). Speech Education for Children from 1 To 3 Years of Age. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, *1*(7), 135-141.
7. Sobirjonovich, S. I. (2021). Didactic Interaction as Whole Integral Education. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *1*(7), 80-83.
8. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Child Thinking and Problem Solving. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (4) 111-115.
9. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.
10. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.
11. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.
12. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). The Concept of Connected Speech and its Significance for the Development of Preschool Children. Spanish Journal of Innovation and INTEGRITY. 05. 518-523.
13. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Heuristic Activity in the Educational Process of the Institutions of Preschool Education. Spanish Journal of Innovation and INTEGRITY, 05. 529-534.
14. “EARLY STUDENTS IN MATHEMATICS FORMATION OF FUNDAMENTALS OF ECONOMIC KNOWLEDGE” Soliyev Ilhom, Sirojiddinova Gulchehra Nematilo qizi